



NAZAR ESHONQUL ASARLARI BADIY TAHLILI

Tolibova Muhabbat Fozilovna

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15760482>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 24-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 27-Iyun 2025 yil

KEY WORDS

hikoya, asar, pafos, mafkura, xira tasvirlar, zanjir, jamiyat, yoshlik, konflikt.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zining zamonaviy asarlari va hikoyalari bilan shuhrat qozongan mashhur yozuvchi Nazar Eshonqulning ayrim asarlari, jumladan, "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi badiiy tahlili, uning kompozitsiya, syujet, voqealar tizimi tahliliy fikrlar asosida yoritib berilgan.

Inson tafakkurining yangilanishida, uning ongiga ma'lum bir g'oyani singdirishda hech qaysi soha adabiyotchilik imkoniyatga ega emas. Ijodkorning "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Maymun yetaklagan odam", "Xayol tuzog'i", "Tobut", "To'zon", "Og'riq lazzati" kabi hikoyalari har jihatdan ilmiy-estetik tahlil va tadqiq qilish, ular orqali o'zbek hikoyachiligida g'arb modern adabiyotiga xos xususiyatlarning shakllanishi va o'ziga munosib o'rin egallash jarayonini o'rganish mumkin.

Yozuvchi asarlaridagi qahramonlarga xos milliylik, voqealarning sirli tarzda vositalar orqali, ba'zan sahna ortida imo-ishoralar bilan ko'rsatilishi, eng asosiysi, asarlaridagi voqealar "men" tilidan hikoya qilinishi va doimo o'zini-o'zi taftish-u tahlil etib borishi, o'z gunohlariga iqrorligi adabiyotdagi, nainki milliy mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligi, balki butunicha nasrimizdagi yangicha uslubiy yo'nalish sifatida o'rganishga sazovordir. Bu xususda yozuvchi Nazar Eshonqulning o'zi shunday fikr bildiradi: "Adabiyot hech qachon yakka holda taraqqiy etgan emas. Bir insonni fikridan qaytarish yoki o'z haqiqati bo'lgan shaxsning qarashlarini o'zgartirish oson emas. Chunki inson o'z maslagidan voz kechishi, bosib o'tgan yo'lini, yashash tarzini inkor etishi, men adashibman, deya osongina tan olishi hazilakam gap emas. Bu qalb va iroda bilan kechadigan jarayon.

Axir, umr davomida singdirilgan mafkurani yangilashning o'zi bo'lmaydi. Yozuvchining bir qator hikoyalari, jumladan, "Hayol tuzog'i", "To'zon", "Lazzat ortida qolgan yurak", "Zulmat saltanatiga sayohat" hikoyalari an'anaviy asarlar singari bir kishi taqdiri tafsilotlari tavsifidan iborat emas. Ular mislsiz azobda o'rtanayotgan bor bisotidan, o'zligidan ajralgan dunyoga qo'l siltagan inson ichki olamining so'zda chizilgan suratiday bo'lib ko'rinadi. Bu surat buyuk rassomlar asarlari singari qabariq va ta'sirchandir. Undan o'z xotiralarini yengolgan, taqdir so'qmoqlarida adashgan alamzada odam so'zlab turganday ko'rinadi. Bu qahramonlar o'zini-o'zi inkor qilgan g'alayonlarning mo'jaz umumlashmasi sanaladi. Insoniyat tarixi o'tmish davrlaridan iborat. O'tmaydigan davrning o'zi yo'q. Badiiy tafakkur ham shu. U tinimsiz

o'zgaradi, o'zgargani sayin badiiy tasvir imkoniyatlari kengayadi, torayadi, tinch turmaydi. Shu tariqa har qanday milliy- badiiy tafakkur biridan keyingisiga o'tuvchi bosqichlar evolyutsiyasidan tashkil topa boradi. Ana shu tadrijiy davomiylik ilg'ab olinsa, milliy-badiiy tafakkurning yaxlit bir jarayon ekanligini tasavvur etish oson ko'rinadi. Mazkur yaxlit jarayon ichidagi badiiy tafakkur evolyutsiyasi bosqichlarini aniqlash uchun esaqo'llanilayotgan badiiy tasvir vositalari tadrijini o'rganishga to'g'ri keladi. Chunki ijodkor shaxs dunyoni, insonni qanday idrok etsa, shunga yarasha badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi, yangilarini kashf etadi.

Yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalarida esa bu ko'rinish o'ziga xos tarzda bo'y-bast ko'rsatib borayotir. "Uyg'onish badiiyati insonni jo'n va yuzaki tushunishdan, uni bir yoqlama talqin etishdan voz kechdi, - deb yozadi filologiya fanlari nomzodi Xurshid Do'stmuhammad, - o'zbek hikoyachiligida bu o'ziga xoslik nasihatbozlikdan qutulishda o'z ifodasini topdi. Misol uchun "oqqadarlik - yomon", ichkilikbozlik, poraxo'rlik - illat" singari "g'oya"lar hikoyalarda o'z qadr- qimmatini yo'qotadi. Ishlab chiqarish mavzusidagi jasoratlar madhi o'rnini qahramonning shaxs sifatidagi kamolini izlash tasviri egalladi. Qahramonlarning ijobiy yoki salbiyligini belgilovchi mezonlar o'zgardi. Qahramon shaxsi, ruhiy olami, shuuri tasviriga moyillikning kuchayishi hikoyaning syujet qurilishini, tasvir maromini, konfliktlar tabiatini yangiladi".

Darhaqiqat, adib ta'kidlaganidek, inson ruhiy holatini taftish etuvchi, uning o'zligini, "men"ini kashf etishga qaratilgan modern adabiyoti Sharqning ulkan tafakkur qudrati bilan yaratilgan. Bu borada yozuvchi Nazar Eshonqul fikr bildirar ekan, xalqimizning qadimiy ijod namunalari yuqori baholab: "Turkiy xalqlar asotir va eposining ta'sir ko'lami shu darajada kengki, biz hatto buni tasavvur ham qilolmaymiz. Agar biz ana shu merosni o'zlashtira olsak, g'arb adabiyoti nimadan "ozuqlangan"ini ham, chinakam ma'nodagi adabiyot o'zi nimadan iborat ekanligini ham tezda tushunib yetamiz".

Nazar Eshonqul asarlarini o'qib turib yozuvchi ijodidagi ko'zga tashlanadigan jihatlar asosan xalq mifologiyasi asosida, uning o'zagidan ruh olib yaratilganligiga amin bo'lasan. Yozuvchining "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi 1989-yil 6-yanvar kuni "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida bosilib chiqqan. Ushbu kichik hikoya syujeti va voqealar rivojining o'zgachaligi bilan kitobxonlar e'tiborini jalb qila olgan. Eng avvalo uning sarlavhasi kishining aqlida asarni o'qimasdanoq munozarali kayfiyatni uyg'otadi. Asarning sarlavhasi uning kompozitsiyasida muhim rol o'ynab, hikoyaning mazmunini o'zida namoyon qilgan. Hikoya nega aynan shunday nomlangani va yuqoridagi munozarali o'ylarimizning javobini uni o'qish jarayonida anglab boramiz. Asar syujeti sayyor syujet bo'lib, yozuvchi hikoyani mavjud qoliplar asosida emas mutlaqo yangicha talqin, yangicha ruhda, o'ziga xos salohiyatda yozgan. Syujet voqealari xronikal tarzda joylashgan.

Hikoya qahramoni chol chizgan ikki surat uning butun hayotida o'zi ishongan falsafadir. U o'z hayotini shu ikki rasmda mujassamlashtirdi. Uning yoshlikda chizgan rasmi, navqiron, yosh, ko'zlarida qat'iyat va ishonch aks etgan yigitning o'rmondan bo'yniga tarang qilib tortilgan zanjir osilgan maymunni yetaklab chiqishi, bu ramziy belgi bo'lib, cholning yoshlik davrlariga ishora qiladi, ya'ni u yoshligida iqtidorli edi, uning chizgan tasvirlarida yorqinlik ko'tarinkilik qat'iyat aks etib turardi. Maymunni yomonlik, hayotdagi salbiy holatlar, qorong'u bir mafkuraning ramzi deb olsak, yigitning maymunni zanjirlab yetaklab ketishi uning hayotdagi mana shu yomonliklar, salbiy mafkuraga qarshi kurashganligi va uning

ustidan g'olib kelishi deya olish mumkin. Haqiqatdan ham chol o'ttizinchi yillarda mas'ul vazifalarda uzoq yillar xizmat qilgan, uning xizmatlari el og'ziga ham yoyilgandi. Yonib –kuyib ko'zlarida qat'iy ishonch bilan mehnat qilgandi, mustabid tuzumga qarshi kurashgandi. Ammo cholning keying yillarda chizgan suratlarida avvalgilaridagi yorqinlik tobora susayib, iliq ranglar o'rnini g'ira –shira, qora bo'yoqlar egallay boradi. Hikoyada cholning o'z do'stining faoliyatidan qistirma epizod keltirishi go'yoki, mana shu rasmlardagi qoralikning sababidek keltirib o'tiladi. Chunki chol "hayotda nima yaxshiligi yu nima yomonlik, hech qachon farqlab bo'lmaydi, yaxshilik - ayni paytda kimlargadir yomonlik, yomonlik esa ayni paytda kimlargadir yaxshilik bo'lib tuyuladi, mening umrimda anglagan xulosam shu" degan gapi bilan do'stining hayoti orqali o'z hayoti uchun ham xulosa chiqarib bo'lgandi. Uning hayotida salbiy xulosalarni keltirib chiqaruvchi qanday hodisalar sodir bo'ldi bu bizga qorong'u, o'sha davrdagi "yuqoridan shuncha xom-ashyo bor, deb buyruq kelardi. Buyruqni inkor etib yoki muhokama qilib bo'lmasdi, - biz ana shunday ruhda tarbiyalaganmiz, - uni bajarish kerak!" qabilidagi ijtimoiy tuzum bunga sabab bo'lgandir, ehtimol..." E'tiqod!

Asar syujetida ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, konflikt, kulminatsiya kabilar yaqqol o'z ifodasini topgan. Choldagi maxfiylikning ochila borishi, uning talaba yigit bilan bo'lgan suhbatida ochiqdun dunyoqarashi va keltirgan fikrlari esa kulminatsiyasi bo'la oladi. Asardagi cholning o'limi, uning umrining oxirida chizgan rasmi voqealarning butunlay tushunarli bo'lishi, sirlilikning yo'qolishiga xizmat qilgani uchun asarning yechimi hisoblanadi. Hikoyada keltirilgan sarlavha, portret, peyzaj, detal, qistirma epizod kabilar asar kompozitsiyasini yaxlitlovchi muhim omil vazifasini bajargan. Ayniqsa, cholning uyining tasviri chizilgan holatlar hikoyadagi o'zgacha kayfiyat, undagi kirlik, qoralikni ta'kidlashga xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hayotda inson doimo o'ziga bo'lgan qat'iyat va ishonch bilan yashashi va shu yo'lda harakat qilishi lozim. Hayotdagi qiyinchiliklar, to'siqlar sizning fikrlaringizning o'zgarishi, ishonchingizning yo'qolishiga sabab bo'lmasin. Zero hayot yorqin insonlar, yorqin fikrlar, yorqin bo'yoqlar bilan turli ranglarda jilolanadi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam. -Toshkent, "Yangi asr avlodi", – 2004.
2. Norbekova A. Nazar Eshonqul hikoyalari uslubi. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi misolida" ilmiy maqola.
3. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Darslik. -Toshkent,– 2017.